




№3
2024



O'ZBEKISTAN MAMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NOKIS FILIALI

MUSIQ VA SAN'AT AJOBO KUTUBXONASI | БЕЎТХИҚ ХУЗУРҚИ И ҚОЎҚУТБА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI**

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ**

Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 3/2024

QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN’ATINING RIVOJIDA G‘AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI

Dauletbaev T.Q.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq baxshichilik san’ati rivojlanishi va G‘ayratdin Utemuratovning ijodi va uning baxshichilik san’atiga qo‘shgan hissasi haqida bayon etilgan

Kalit so‘zlar. Baxshi, baxshichilik, musiqa, milliy meros, milliy asbob, ansambl, dutor, dutor sozandachiligi.

Аннотация: В данной статье описывается развитие каракалпакского искусства и творчество Гайратдина Утемуратова и его вклад в искусство бахши.

Ключевые слова: Бахши, бахшилик, музыка, национальное наследие, национальный инструмент, ансамбль, дутор, дуторское музыкальное мастерство.

Abstract: This article describes the development of Karakalpak art and the work of Gairatdin Utemuratov and his contribution to the art of bakhshi.

Key words: Bakhshi, bakhshilik, music, national heritage, national instrument, ensemble, dutor, dutor musical skill.

Xalqimizning milliy o‘zligini, qadimiy tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an’ana va urf-odatlarini o‘zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan baxshichilik san’ati atoqli baxshi – shoirlarimiz, folklorshunos olimlarimizning fidoiy mehnati ijodiy tafakkuri bilan asrlardan asrlarga o‘tib kelmoqda. Mustaqillik yillarida milliy o‘zligimiz qayta tiklanib, so‘nggi yillarda esa bu madaniy va moddiy merosimiz butun dunyoga keng tarannum etilmoqda. O‘zbekistonning XIX – XX asrlar madaniyati tarixida ko‘plab baxshi shoirlar nomlari qayd etilib, ularning ko‘plariga haykallar o‘rnatilgan, kuylagan doston, epos, termalari tasma, plastinka va to‘plamlardan o‘rin olgan.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev PQ – 4320-son “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori Qoraqalpoq milliy baxshichilik san’atining rivojlanishiga salmoqli ta’sirini o’tkazib kelmoqda.

Qoraqalpoq xalq milliy baxshichilik san’ati XV – XVI asrlarda paydo bo’lib, shu davrgacha ikkiga – Musa va Suyew baxshichilik maktabi bo’lib o’rganilgan. Lekin so’nggi yillarga kelib ko’plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar natijasida baxshichilik maktabi Aqimbet, G’aripniyaz, Arzi va Qutim baxshichilik maktablariga bo’linib o’rganilmoqda.

Aqimbet baxshining shogirdi Musa, Musa baxshining shogirdi Tileumurat, Tileumurat baxshining o’g’li Genjebay Tileumuratov, Genjebay Tileumuratovning shogirdi Utemuratov G’ayratdin Qaypovich 1958-yili 27-aprelda Kegayli tumanida dehqonlar oilasida dunyoga kelgan. Kichkinaligidan radioeshittirishlar va televideniye orqali berilgan musiqiy ko’rsatuvlarni ko’rib, unda chalingan baxshichilik va dutor sozlariga e’tibor qaratib, uyidagi o’qlovni asbop qilib chalib o’zicha qo’shiq aytib yurgan. O’g’lining qiziqishini ko’rgan G’ayratdinning otasi unga o’yma dutor soz asbobini qo’ldan yasab bergan va bu voqea unga yanada ilhom bag’ishlaydi. Bu qiziqish uni 1976-yili Nukus san’at bilim yurtiga yetaklaydi va xalq cholg’ulari bo’limiga o’qishga kelib “Qashqar rubobi” soz asbobini ko’rib, bu asbobning sirlarini ham o’rganish uchun Qoraqalpog’istonda xizmat ko’rsatgan artist M.Kamalov sinfida ta’lim oladi. O’qish davomida Qoraqalpog’iston xalq baxshisi, Berdaq nomidagi Davlat mukofoti laureati G.Tileumuratov yoshlarning “Ala moynaq” dutor chalish mahoratini sinab ko’rib, qo’shimcha darslar o’tiladigan bo’lgan. Bu sinovdan G’.Utemuratov o’tib, o’zining ustida tinmay mehnat qilib, dutorda asarlar chalib, qo’shiqlar ijro qilib ustozining ko’nglidan chiqadi. 1980-yili “Muxalles” dutorchilar ansambliga ishga qabul qilinadi. Ansamblda G’ayratdin ko’plab xalqimizning taniqli baxshi va sozandalari bo’lgan A.Tarixov, U.Sadiqov, S.Sadiqov, Q.Esjanov, T.Qurbanov, jirov J.Sirimbetovlar bilan birgalikda ish olib borib, ulardan baxshichilik va sozandachilik tajibalarini olib, ustoz-shogirt sifatida yelkadosh bo’ladi. Ularning

har biridan o'ziga yangilik oladi, turli kuylarni o'rganadi, ularning kelib chiqish tarixlarini o'rganib chiqadi, maslahatlarni o'ziga yozib olib o'zining repertuarini boyitib boradi. 1982-yili o'qishini muvaffaqiyatli tamomlab, "Muxalles" dutorchilar ansambliga doimiy ishga joylashadi. Bu yerda ish yuritish vaqtida G'.Utemuratov Tatariston, Dog'iston, Toshkent va Xorazm viloyatlarida bir necha marta o'tkazilgan "Madaniyat va adabiyot" kunlarida faol qatnashib, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan "Maqto'v yorlig'i" bilan taqdirlanib xalqimiz orasida keng tanila boshlaydi. 1992-yili Mustaqilligimizning sharofati bilan Nukus san'at bilim yurtida "Milliy musiqa" bo'limi ochilib u o'qituvchilik lavozimiga ishga taklif qilinadi. San'at sohasida tinimsiz izlanib kelayotgan bu inson, qo'shimcha o'qituvchilik ishini olib borishi natijasida, samarali mehnatlarini hisobga olib, hukumatimiz unga ishonch bildirib 1998-yili G'.Utemuratovga "Muxalles" dutorchilar ansambliga badiiy rahbar lavozimiga tayinlanadi va u ansamblning repertuarini yanada boyitadi.

1999-yili Samarqand shahrida o'tkazilgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida ishtirok etdi.

2003-yili Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining "Hurmat yorlig'i" bilan mukofotlanadi.

2007-yili Turkmaniston Respublikasining Ashxobod shahrida o'tkazilgan "Milliy folklor va teatr hunari" festivaliga qatnashib, qoraqalpoq milliy ijrochilik me'rosini yanada tanitishga muyassar bo'ladi. Qilgan mehnatlarini yuqori baholab hukumatimiz tomonidan shu yilning o'zida "O'zbekiston xalq baxshisi" unvoniga sazovor bo'ladi.

2010-yili YUNESKOning nomoddiy-madaniy meroslarni ro'yxatga olish ekspeditsiyasiga a'zo bo'ladi va Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasida bo'lib o'tgan ekspeditsiya davomida yozib olingan 22 ta qo'shiq va sozlardan iborat kompakt diskning taqdimotiga mo'ljallangan konsertda qatnashadi.

2012-yili Ostona shahrida bo'lib o'tgan «Qo'rqit sozi» xalqaro tanlovida hay'at a'zosi sifatida, shu jumladan o'sha yili Toshkent shahrida o'tkazilgan

YUNESKOning nomoddiy-madaniy meroslarni o‘rganish bo‘yicha seminarida faol ishtiroki uchun “Sertifikat” bilan taqdirlanadi.

G‘.Utemuratov Qoraqalpog‘iston telekanali orqali efirga uzatib borilgan “Saz úyreniw mektebi”, “Baqсылar lapızı”; “Dásme-dás” ko‘rsatuvlarining boshlovchisi bo‘lib milliy me‘rosimizga aloqador bo‘lgan ko‘plab ma’lumotlarni katta va kichikga, musiqa tinglovchilariga yetkazib berishda zaxmatli mehnat qilib, shu bilan bir vaqtda qoraqalpoq xalq dostonlarini “Ullı zıban” ko‘rsatuvi orqali milliy teleradiokompaniyasining oltin fondiga to‘liq yozib, kelajak avlodga baxshichilik san’ati yetib borishiga katta hissa qo‘shdi, deb hisoblasak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘z kasbini sevgan G‘.Utemuratov bir necha yillar davomida alamoynaq dutorining ijro usullarini mukammal darajada o‘zlashtirib dutor uchun “Dutor zavqi”, “Ko‘ngil nolasi” kabi yangi mualliflik asarlarini yozadi. Asarlarni professional bastakorlarga ko‘rsatib, kompozitsiya bo‘yicha fikr almashadi va ularni xalq cholg‘ulari orkestri bilan ijro qilish fikriga kelib, uni orkestr uchun moslashtiradi va yangi asar sifatida repertuarga kiritadi. Mazkur asarlar hozirgi kunga qadar konsert va tadbirlarda ijro qilinib kelmoqda.

2019-yili 5-10-aprel kunlari Respublikamizning Termiz shahri mezbonlik qilgan birinchi Xalqaro “Baxshichilik va san’at” festivalida faol qatnashadi.

Hozirgi kunda G‘.Utemuratov faqatgina o‘qituvchilik faoliyati bilan cheklanmasdan, xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilib kelayotgan ilmiy-amaliy konferensiyalarida o‘z maqolalari bilan ishtirok qilib kelmoqda. Shuni aytib o‘tish kerakki, uning Turkiya mamlakatida bo‘lib o‘tgan konferensiyaga “Go‘ro‘g‘li dostoni – qoraqalpoq jirov-baxshilari repertuarida” maqolasi so‘zimizning yorqin dalili bo‘la oladi.

G‘.Utemuratovning ko‘plab shogirdlari bor. Ulardan Qoraqalpog‘iston xalq baxshisi Z.Sharipova, Qoraqalpog‘iston xalq baxshisi G.Aximbetova, Qoraqalpog‘iston xalq ta’lim a’lochisi, falsafa fanlari doktori, dotsent A.Erejepov, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi U.O‘rinboyeva, ko‘plab xalqaro va

respublika tanlovlari gʻoliblari Z.Arzimbetova, H.Elmuratova, M.Aekeev, Z.Ibragimova, O.Otambetov, Gʻ.Bekturgʻanova va boshqa koʻplab shogirtlari bilan birgalikda ustoz-shogird yoʻlini davom ettirib kelmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning yuksak badiiy dahosi bilan yaratilgan milliy baxshichilik sanʼatini saqlab qolishda, ushbu noyob sanʼatni asrab-avaylash va rivojlantirishda Utemuratov Gʻayratdin Qaypovichning oʻrni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.05.2019 yildagi PQ-4320-son. <https://lex.uz/docs/-4380951>
2. D.Allanazarov “Qaraqalpaq xalq sazları” Nókis-2002.
3. Q.Ayımbetov “Xalıq danalıǵı”; “Qaraqalpaqstan” nashri Nókis-1988.
4. “Qaraqalpaq folklorı” 5-tom “Qaraqalpaqstan” nashri Nókis-1988.
5. Dauletbaev T. CHOLG ‘U ASBOBLARINI O ‘RGATISHDA NOTA SAVODINI OSHIRISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 31-33.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Allanbaev R.O. QOSÍQSHÍLIQTÍN BÚGINGI KÜNDEGI ÁHMIYETI.....	3
2	Kulchigayeva M. QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA	10
3	Charshemov J., Muratbaeva R. JANA RUXTAGÍ XALÍQ QOSÍQLARÍ.....	16
4	Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI	22
5	Abatbaeva R. QORAQALPOQ MUSIQA SAN‘ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI.....	28
6	Rasbergenova X.S. MUSIQANING INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....	38
7	Abdisultanov J. QARAQALPAQ MUZÍKASINDAGÍ JANRLÍQ ÓZGESHELIKLER (QARAQALPAQ MUZÍKALÍ DRAMALARDÍN PAYDA BOLÍWÍ HÁM RAWAJLANÍWÍ).....	43
8	Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINÍN GARMONIYASÍ.....	49
9	Zuxurov M. VIOLONCHEL SAZ ASBABINÍN KELIP SHÍGIWI, ORKESTR HÁM KAMER ANSAMBLERINDE TUTQAN ORNI.....	54
10	Uzoqov D.S. UYG‘UR MUSIQALI TEATRINING MARKAZIY OSIYODA PAYDO BO‘LISHI.....	59

KÓRKEM ÓNER

11	Mamutov P.A. KOMPOZITOR HIKMAT RAJABOV ÓMIRI HÁM DÓRETIWSHILIGI HAQQÍNDA.....	65
12	Abdikarimova I. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASINDAGÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ.....	71
13	Sobirjonov A. O‘ZBEK OPERA XONANDALIGIGA VA MILLIY QO‘SHIQCHILIGIGA ERGASH YO‘LDOSHEVNING QO‘SHGAN HISSASI.....	76
14	Saidxonov A.S. XX ASR YANGI VENA MAKTABI IJODKORLARI TARIXNING YANGICHA KO‘RINISHI.....	80
15	Dauletbaev T.Q. QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN‘ATINING RIVOJIDA G‘AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI....	90
16	Matimuratov S. QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍN TUTQAN ORNÍ...	95
17	Ońgarbaeva L. CHANG SAZ ÁSBABÍNÍN TARIYXÍ HÁM USTAZ ATQARÍWSHÍLARÍ.....	100
18	Sharipov A.Sh. XONANDALIKDA IJROCHILIK TAMOYIL VA ME‘ZONLARI.....	106

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

19	Rajabov X.J. QASHQAR RUBABI BASLANG'ISH SABAQ BARISINDAGÍ TÁLIM MASHQALALARI TIYKARINDA.....	110
20	Abatbaeva U.A. ART-PEDAGOGIKALIQ HÁM ART-TERAPEVTIKALIQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARINDA BASLANG'ISH KLASS OQIWSHILARIN ESTETIK TÁRBIYALAW MODEL.....	118
21	Jumaniyazov O'. O'QUVCHILARGA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY RISOLALARINING AHAMIYATI.....	125
22	Любимцева В.С. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ.....	131
23	Matjanova M. OQIWSHILARDÍ ESTETIK TÁRBIYALAWDA ÁMELIY QOLLANIW METODLARÍ, FORMA HÁM QURALLARI...	136
24	Jumabaev A. NOTA OQIW TÁJIRIYBESINDE ATQARIWSHILIQ KÓNLIKPELERIN ÓZLESTIRIW HÁM QÁLIPLESTIRIW.....	143
25	Раджабова Н. АКТИВИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТОНАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЕЛОДИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СОЛЬФЕДЖИО....	149
26	Mutalov D.A. YOSHLARNING MA'NAVIY SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O'RNI.....	154

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

27	Palimbetov K.S. QARAQALPAQ XALÍQ DÁSTÚR FOLKLORÍNÍN ÚYRENILIW MÁSELESÍ.....	160
28	Bekbergenova Z. 1990-2000-JÍLLARDAĞÍ QARAQALPA AMATURGIYASÍ HAQQÍNDA	168
29	Marziyayev J.K. EKOLOGIK MADANIYAT VA UNI SHAKLLANTIRISH: EKOLOGIK MUAMMONI OLDINI OLISHNING BIR USULI SIFATIDA.....	176
30	Sadenova G.P. KÓRKEM SHÍĞARMALARDA EPITETTÍN QOLLANÍLÍW ÓZGESHELIKLERI HÁM USÍLLARÍ.....	181